# PEDAGOGIKA

**ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL**

**2/2026**



**Bosh muharrir:**
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o‘rinbosari)

**Tahrir hay’ati:**
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod



**Muassis** – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o‘qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o‘zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan va unga O‘zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.



**© “Pedagogika” jurnali, 2026**

# PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODICAL JOURNAL

2/2026

**CHIEF EDITOR**
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

**EDITORIAL BOARD:**
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

The founder: National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian English languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

# BOLALAR NUTQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

**Raxmonova Dilnavoz Muhiddinovna, Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Nutqni rivojlantirish, uning ta’sirchanligi va jozibardorligini oshirish so‘nggi yillarda ko‘plab olimlar tadqiqot ishlarining bosh mavzusiga aylanishga ulgurdi. Til – nutqning shakllanishida eng asosiy vosita sanaladi. Inson ichki kechinmalarini, his-hayajonini, ichki olamini til orqali nutqqa ko‘chiradi. Maqolada nutq faoliyatining rivojlanishida oid ilmiy va metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, nutq faoliyati rivojlanishida metodist va olimlarning turli yondashuvlari keltirilib, «Aqliy hujum», «Tezkor savol-javob» metodlarining samaradorligi tadqiq qilinadi. Mazkur maqolada psixolingvistika fanining muhim tadqiqot obyekti hisoblangan nutqiy buzilishlar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish masalalari yoritiladi. Nutqiy buzilishlar insonning muloqot jarayoniga, tafakkur faoliyatiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Shuningdek, nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda psixolingvistik yondashuvning ahamiyati ochib beriladi.

***Tayanch so‘zlar:*** *psixolingvistika, nutqiy buzilishlar, nutq faoliyati, tafakkur, muloqot, psixik jarayonlar.*

**Аннотация.** Развитие речи, повышение её эффективности и привлекательности стало главной темой исследований многих учёных в последние годы. Язык рассмотрен как основной инструмент формирования речи. Личность переносит свои внутренние переживания, эмоции и свой внутренний мир в речь посредством языка. В статье проанализирована научно-методическая литература по развитию речевой деятельности. Кроме того, представлены различные подходы методистов и учёных к развитию речевой деятельности, а также изучена эффективность методов «Мозговой штурм», «Быстрый вопрос и ответ». В статье рассмотрены речевые расстройства, являющиеся важным объектом исследования в области психолингвистики, раскрыты причины их возникновения и приведены вопросы их устранения. Подчеркивается, что речевые расстройства оказывают негативное влияние на процесс коммуникации, мышления и социальной адаптации человека. Также раскрыта важность психолингвистического подхода в устранении дефектов речи.

***Ключевые слова:*** *психолингвистика, расстройства речи, речевая деятельность, мышление, коммуникация, психические процессы.*

**Abstract.** The development of speech, increasing its effectiveness and attractiveness has become the main topic of research work of many scientists in recent years. Language is considered the main tool in the formation of speech. A person transfers his inner experiences, emotions, and his inner world in general to speech through language. The article analyzes scientific and methodological literature on the development of speech activity. Also, various approaches of methodologists and scientists to the development of speech activity are presented, and the effectiveness of the methods «Brainstorming», «Quick Question and Answer» is studied. This article covers speech disorders, which are an important object of research in the field of psycholinguistics, the causes of their occurrence and issues of their elimination. It is emphasized that speech disorders have a negative impact on the process of communication, thinking and social adaptation of a person. It also reveals the importance of the psycholinguistic approach in eliminating speech defects.

***Key words:*** *psycholinguistics, speech disorders, speech activity, thinking, communication, mental processes.*

**Kirish.** Til va nutq inson tafakkurining asosiy vositasi bo‘lib, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq jarayonida yuzaga keladigan buzilishlar shaxsning fikrni to‘g‘ri ifodalashiga, atrofdagilar bilan samarali muloqot

o‘rnatishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli nutqiy buzilishlarni o‘rganish va ularni bartaraf etish masalasi psixolingvistikaning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutqiy buzilishlarning psixolingvistik mohiyatini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Psixolingvistika nutqni yaratish, idrok etish va tushunish jarayonlarini psixik mexanizmlar asosida tadqiq etadi. Nutqiy buzilishlar esa, ushbu jarayonlarning bir yoki bir nechta bosqichida yuzaga keladigan nuqsonlar natijasidir. Bunday buzilishlar fonetik, leksik, grammatik va semantik darajalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

**Asosiy qism.** Nutqiy buzilishlarning kelib chiqishida biologik (miya faoliyati, eshitish apparati), psixologik (stress, qo‘rquv, ruhiy zo‘riqish) hamda ijtimoiy omillar muhim ahamiyatga egadir. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan psixolingvistik islanishlar ushbu omillarning nutq faoliyatiga ta’sirini aniqlashga xizmat qiladi. Nutqiy buzilishlarni bartaraf etishda psixolingvistika kompleks va tizimli yondashuvni taklif etadi. Bunda nutqni idrok etish, qayta ishlash va ifodalash jarayonlari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Har bir shaxsning individual psixik xususiyatlari hisobga olinib, mos tuzatish usullari ishlab chiqiladi. Psixolingvistik yondashuv logopediya, neyropsixologiya va pedagogika fanlari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Natijada, nafaqat nutqiy nuqsonlar bartaraf etiladi, balki shaxsning umumiy nutq madaniyati va muloqot kompetensiyasi ham rivojlanadi. Nutqiy buzilishlarni bartaraf etish psixolingvistikaning muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, u inson tafakkuri va nutq faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur anglashga imkon beradi. Psixolingvistik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar nutqiy nuqsonlarni samarali bartaraf etishga, shaxsning ijtimoiy hayotga to‘laqonli moslashuviga xizmat qiladi.

J.Field psixolingvistikaning til va nutqning psixologik asoslarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u nutqni idrok etish, qayta ishlash, ishlab chiqarish va tilni o‘rganish jarayonlaridagi psixik mexanizmlar bilan lingvistik tuzilish o‘rtasidagi munosabatni tahlil qiluvchi soha ekanligini ta‘kidlaydi [3, 5-b.]. Demak, psixolingvistika – til va nutqning psixologik asoslarini o‘rganuvchi fan hisoblanib, unda inson nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishning muhim jihatlari o‘rganiladi. Ingliz tilshunosi L.Gleitmanning fikricha, bu fan til bilan bog‘liq kognitiv jarayonlarni (nutqni tinglash, tushunish, eslab qolish, gapirish) psixodiagnostik yondashuv orqali o‘rganadi [4, 234-b.]. Psixolingvistika haqida aytilgan yuqoridagi ilmiy fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu fanda faqatgina til va nutq emas, balki nutqni tinglash, tushunish, eslab qolish va gapirish ham o‘rganiladi.

Psixolingvistikaning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi: 1. Nutqni idrok etish va tushunish. Nutqni eshitish jarayonida inson miya nutq signalini qanday qabul qiladi va uni ma’noga aylantiradi – psixolingvistikaning markaziy tadqiqotlari shulardan biridir [8, 112-b.] Bu xulosadan shuni tushunish mumkinki, inson miyasi nutqni idrok etish, tushunish, tahlil qilish kabi funksiyalarni bajaradi. Bu esa, bevosita psixolingvistika bilan bog‘liq jarayon. Masalan, bolalar so‘zlarni eshitganda ular qanday qilib tovushlardan ma‘noga o‘tadi, bu jarayon faol xotira va e‘tibor bilan bog‘liq. 2. Nutqni ishlab chiqarish. Gapirish jarayoni – bu fikrdan so‘zga o‘tish, so‘z va gap tuzishning kognitiv mexanizmlarini o‘rgatadi. Gapirishda grammatika qoidalarini avtomatik qo‘llash shaxsning kognitiv strukturasi bilan chambarchas bog‘liqdir [4, 96-b.]. Bu esa, ma‘lum bir grammatik bilimlarni bilish demakdir. 3. Til egallash. Tilni egallash va til buzilishlari bo‘yicha klassik tadqiqot olib borgan L.Bloom va M.Laheylar: «Tilni egallash – bu til qoidalarini o‘rganish va nutq mahoratini shakllantirish jarayoni. Bolalar va kattalarda til egallash jarayoni farqli psixik mexanizmlarga ega bo‘ladi deb aytadilar» [1, 18-b.]. Ma’lumki, hammaning til o‘rganish

qobiliyati turlicha bo‘ladi. Ba‘zi insonlarda xotira va tafakkur yuksak darajada rivojlanganligi sababli ham ularda til o‘rganish va unda mukammal muloqot qila olish qobiliyati yaxshi shakllanadi. Aksincha xotirasi sust va diqqatini jamlash qobiliyati yaxshi rivojlanmagan kishilarda til o‘rganish jarayoni biroz keyinga qolishi aniq. Biroq, xotirani rivojlantirib borish shart. Buning uchun xotirani rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishi, kichik bo‘lsa-da matn yoki she’riy parchalardan doimiy yodlab borish lozim. Bir nechta xotira mashqlari borki, bu mashqlarda yosh xususiyatini inobatga olib foydalanish nutqning ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Quyida shunday mashqlardan ba‘zilarini tavsiya qilamiz: eslatma sifatida ta‘kidlash joizki, har qanday mashqni oddiydan murakkabga o‘tkazish tavsiya etiladi. Har bir mashq 5-10 daqiqa davom etishi maqsadga muvofiq. Shundagina nutqiy buzilishlarda yuqoridagi mashqlar psixolingvistik terapiya bilan uyg‘unlashtiriladi. Psixolingvistika chuqur ilmiy tadqiqotlar orqali nutq va tilni qayta ishlashni tushunishga yordam beradi. Bu fan: logopediya va nutq terapiyasi metodlarini yaxshilaydi; ikki tillilik va til ta‘limi metodlarini rivojlantiradi; tilni o‘rganish va o‘qitish samaradorligini oshiradi [5, 114-b.].

Psixolingvistik yondashuv bolalar nutqini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajaradi: nutqiy faoliyatni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash, lingvistik tuzilmalarning rivojlanishini kuzatish, so‘z boyligini oshirishga ko‘maklashish va grammatik tizimni o‘zlashtirishni ta’minlash. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun biologik va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olish zarur. Biologik omillarga miyadagi nutq markazlari, eshitish va ko‘rish organlarining sog‘lom faoliyati, shuningdek, asab tizimi rivoji kiradi. Ijtimoiy omillar esa, oiladagi kommunikatsiya, ta’lim tizimi va jamiyatning madaniy muhitini qamrab oladi. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu ikki omilning uyg‘unligi bolalar nutqining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega [2, 36-b.]. Psixolingvistika faqat psixologik omillarga emas, balki biologik omillarga ham bog‘liq ekan. Psixolingvistika til va nutq jarayonlarining inson ongida qanday shakllanishi, idrok etilishi va amalga oshirilishini o‘rganadi. Ushbu fan sohasida nutqiy buzilishlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularni bartaraf etish psixolingvistik tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Chunki, nutq buzilishlari shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ta’lim olishi va muloqot samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Nutqiy buzilishlar shaxsning til birliklarini to‘g‘ri idrok etish, ishlab chiqish yoki ifodalash jarayonidagi nuqsonlar bo‘lib, ular fonetik, leksik, grammatik yoki semantik darajalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligining cheklanganligi, gap tuzishdagi qiyinchiliklar shular jumlasidandir. Psixolingvistika nutqiy buzilishlarni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki psixik va kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holatda tahlil qiladi. Bu yondashuvda: nutqiy buzilishlarni bartaraf etish murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u logopediya, psixolingvistika, nevropsixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida amalga oshiriladi.

Nutq kamchiliklarini korreksiya qilishda quyidagi 4 asosiy jarayon muhim hisoblanadi: 1. Logopedik mashqlar asosida korreksiya. Logopedik ta‘sir nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, fonematik eshituvni rivojlantirish va lug‘at boyligini kengaytirishga qaratiladi. Ushbu mashqlar artikulyatsion apparatni mustahkamlab, tovush buzilishlarini bosqichma-bosqich bartaraf etadi [8, 112-b.]. Nutqida kamchiligi bor bolalar logoped yordamida o‘z nutqlari ustida to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganishadi. 2. Psixolingvistik yondashuv. Psixolingvistika nutqni psixik jarayonlar bilan bog‘liq tizim sifatida o‘rganadi. Ushbu yondashuvda xotira, tafakkur, diqqat va idrokni rivojlantirish orqali nutq faoliyati yaxshilanadi [9, 103-b.]. Ayniqsa,

nutqning shakllanishida mantiqiy bog‘lanishlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 3. Psixologik yordam va motivatsiya. Nutqiy buzilishlar ko‘pincha bolada psixologik to‘siqlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijobiy emotsional muhit yaratish va bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish muhim sanaladi. 4. Sensor-motor mashqlar. Mayda va yirik motorikani rivojlantirish nutq apparati faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Barmoqlar gimnastikasi, harakatli o‘yinlar va ritmik mashqlar nutqni faollashtiradi. 5. Oila bilan hamkorlik. Nutqiy buzilishlarni bartaraf etishda ota-onalarning faol ishtiroki muhimdir. Uy sharoitida muntazam mashqlarni takrorlash va bolani nutqiy faollikka undash korreksion jarayon samaradorligini oshiradi.

O‘qituvchining ovozi, talaffuzi, diksiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o‘quvchilar, ayniqsa, kichik sinflardagi o‘quvchilar uchun o‘ziga xos etalon namuna vazifasini bajaradi. O‘qituvchining tirik nutqidagi kattadir, kichikdir, har qanday nuqson o‘quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi [7, 34-b.]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk nutqiy ta’lim va madaniyatni o‘zlarining boshlang‘ich sinf ustozlaridan o‘rganishadi. Inson hayoti davomida xoh ta’lim sohasida bo‘lsin, xoh boshqa bir sohada bo‘lsin, kishilar o‘zlarining nutqlari ustida doimiy ishlab, nazorat qilishlari kerak deb o‘ylayman. Har bir inson o‘zining sof ona tilida muloqot qilsa, fikr almashsa, millatimiz kelajagi bo‘lgan ona tilimiz hali ko‘p yashaydi. Nutq ustida ishlashni qadimgi yunon notig‘i misolida oladigan bo‘lsak, Demosfenning ovozi juda past bo‘lishiga qaramay u o‘z nutqi ustida ishlagan. Ba‘zi manbalarda Demosfen yerto‘la qazib unda o‘z ovozini rivojlantirish uchun diksiya, diklamatsiya bo‘yicha oylab mashq qilgan deb aytilsa, ba‘zi manbalarda esa, daryo bo‘yiga borib jo‘shqinlarga hamohang holda o‘z nutqi ustida ishlagani to‘g‘risida ko‘p eshitganmiz. Psixolingvistika til va nutq jarayonlarining inson ongida qanday shakllanishi, idrok etilishi va amalga oshirilishini o‘rganadi. Ushbu fan sohasida nutqiy buzilishlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularni bartaraf etish psixolingvistik tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Chunki, nutq buzilishlari shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ta‘lim olishi va muloqot samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, nutqiy buzilishlar – bu shaxsning til birliklarini to‘g‘ri idrok etish, ishlab chiqish yoki ifodalash jarayonidagi nuqsonlar bo‘lib, ular fonetik, leksik, grammatik yoki semantik darajalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligining cheklanganligi, gap tuzishdagi qiyinchiliklar shular jumlasidandir. Psixolingvistik yondashuv nutqiy buzilishlarni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki psixik va kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holatda tahlil qiladi. Bu yondashuvda: nutqni rejalashtirish, nutqni ishlab chiqish, nutqni idrok etish jarayonlaridagi uzilishlar aniqlanadi.

Nutqiy buzilishlarni bartaraf etish yo‘llari quyidagilar hisoblanadi: psixolingvistik tadqiqotlar asosida nutqiy buzilishlarni bartaraf etishda quyidagi yo‘nalishlar muhim sanaladi: korreksion mashqlar (fonetik va artikulyatsion mashqlar); psixologik ta’sir usullari (motivatsiyani oshirish, emotsional holatni barqarorlashtirish); kognitiv rivojlantirish (xotira, diqqat, tafakkurni rivojlantirish); individual yondashuv, ya’ni har bir shaxsning psixik xususiyatlarini hisobga olish.

Notiqlik san’atining rivojlanishi, adabiy tilning, badiiy adabiyotning ravnaqida katta ro‘l o‘ynadi, shuningdek, «Ritorika» ilmining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Yunoniston va Rimdagi notiqlik san‘ati taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan mashhur so‘z ustalarining har biri o‘z nutq uslubi bilan alohida ajralib turganlar. Bu haqda Mark Tulliy Sitseron shunday deb yozadi: «Isokratda nazokat, Lisiyda oddiylik, Gipereidda zukkolik, Esxilda tiniqlik, Demosfenda kuch bor. Ular go‘zal, zebo emasmilar? Ular ozgina bo‘lsa-da, bir-

biriga o‘xshaydilarmi? Afrikanda salmoqdorlik, Leliyda muloyimlik, Galbada keskinlik, Karbonda alohida bir ravonlik va ohang bor edi. Ularning qaysi biri o‘z davrlarida birinchi bo‘lmagan? Ta’kidlash o‘rinliki, ularing har biri o ‘z uslubida birinchi edi». Xullas, notiqlar qancha bo‘lsa, suxandonlik turlari ham shuncha xilma-xil bo‘lgan. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, qadimgi davrda mashhur bo‘lgan barkamol notiqlaming aksariyati buyuk donishmandlar Platon va Aristotel maktabida ta’lim olgan faylasuf ham edilar [6, 26-b.]. Nutq o‘stirish va notiqlik san’ati qadim davrlardan buyon rivojlanib, shakllanib kelmoqda.

**Xulosa** qilib aytganda, tilidagi nutqiy buzilishlarni bartaraf etish psixolingvistikaning muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, u tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada joylashadi. Ushbu muammo bo‘yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar:**

1. Bloom, L., Lahey, M. Language development and language disorders. Wiley. 1978.

2. Ellis, N.C. Usage-based and form-based perspectives on language and language development. Wiley-Blackwell, 2008.

3. Field J. Psycholinguistics: the key concepts. Routledge. 2004.

4. Gleitman L.R., Liberman M. An invitation to cognitive science: Language. MIT Press. 1995.

5. Karmiloff-Smith, A. Beyond modularity: a developmental perspective on cognitive science. MIT Press, 1992.

6. Masharipova Z. Ifodali o‘qish praktikumi. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.

7. Omonturdiyev A.J., Abduraimova Sh.I. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. - T., 2016.

8. Traxler M. Introduction to psycholinguistics: - Understanding Language Science. Wiley-Blackwell, 2011.

9. Turaeva B.B. (2021). Theoretical and poetic peculiarities of the chronotope in the novel «The place of the skull» by Ch.Aitmatov // PalArch‘s Journal of archaeology of egypt/egyptology, 18(5), 84-103.

образования в начальной школе и его роль в подготовке учителей.....181
***Алиева Л.***
Педагогические возможности формирования мультикультурных ценностей на уроках английского языка в начальных классах.....186
***Jalilova H.T.***
Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda xorijiy til bilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari.....191
***Sharifov M.K.***
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o'qitishda xorij tajribasi.....196
***Abduraxmanova N.K.***
Uzluksiz ta'lim sharoitida ta'lim muassasalari rahbarlarining raqamli savodxonligini bahoalsh va diagnostika qilish mezonlari.....201
***Mashrapova S.T.***
Maktabgacha ta'limda ta'lim sifati va pedagogik menejmentning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlari.....206
***Мухаммадиева Ф., Джамилова Н.Н.***
Дидактическое обеспечение по использованию квест-игр для формирования навыков сотрудничества у детей 6-7 лет.....211
***Tojiboyeva S.X.***
Biologiya fanini o'qitishda Abu Ali ibn Sino ta'limotlarining pedagogik va ilmiy-metodik xususiyatlari.....216
***Otabayeva O.N.***
Janubiy Koreya va Yaponiyada kasbiy tayyorlashda dual ta'lim tajribasi.....220
***Murotaliyev J.R.***
Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida shaxslararo munosabat va ta'sir etish metodlari.....225
***Maxkamova Z.T.***
Kasbiy ta'lim jarayonida raqamli baholash vositalarini tanlash mezonlari.....231
***Yusupova X.K.***
Intellektual kompetentlikni shakllantirishda kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlar munosabati....236
***Хусейнова У.У.***
Педагогические особенности развития профессиональных компетенций у будущих учителей.....242
***Isroilov U.B.***
Umumta'lim maktablari uchun o'rgatuvchi integrativ dasturiy ta'minot modelining samaradorligi va qiyosiy tahlili.....247
***Tadjiyev D.D.***
Qishloq maktab o'quvchilarida ta'limiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari.....253
***Axrorova S.S.***
Zamonaviy ta'limdagi metodik yondashuv va o'zlikni anglash.....257
***Хужахонова (Содикова) М.Т.***
Уровень психологического благополучия индийских студентов-медиков в условиях обучения за рубежом.....261
***Ro'ziyeva G.A.***
Maktabgacha ta'lim muassasasi direktorlarida boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....266
***Fazilova M.R., Soliyeva A.I., Aripova G.Sh.***
Kasb-hunar ta'limida dual ta'limni innovatsion metodlar bilan boyitish.....270
***Raxmonova M.A.***
Raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy ta'lim o'quvchilarini dizayn loyihalash faoliyatiga tayyorlash mexanizmlariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili.....273
***Xo'janiyazova Sh.B.***
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtiruvchi samarali omillar.....276
***Калыбаева А.Е.***
Современные проблемы воспитания толерантности и применение диалога культур в образовательно-воспитательном процессе в дошкольной образовательной организации (ДОО).....282
***Jabbarova Z.O.***
Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda ta'lim modernizatsiyalashning xalqaro va milliy tajribalari (STEM yondashuv asosida).....286
***Тулаганов Д.Д.***
Влияние использования генеративного искусственного интеллекта на обучаемость и оценку собственных результатов учащимися педагогических групп на примере малого эксперимента.....289
***Shamatova B.***
O'smirlar bilan ishlash jarayonida samarali ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish yo'llari.....294
***Tashpo'latova B.O.***
Mahalla – ma'rifat va tarbiya maskani.....298
***Berdiyev A.P.***
Abdulla Avloniy didaktik qarashlarining jadidchilik ta'limi rivojidagi ahamiyati.....301
***Raxmatullayeva Ch.Sh.***
O'quvchilarning qadriyatli yo'nalishlarini shakllantirishda aksiologik yondashuvga asoslangan baholashning pedagogik imkoniyatlari.....304
***Aliqulova M.E., Sodiqova Sh.A.***
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyati orqali rivojlanish markazlarini loyihalash.....309
***Zufarova G.Sh., Sadikova Sh.A.***
Maktabgacha 6-7 yoshli bolalarni kasbiy faoliyatga yo'naltirishda rivojlantiruvchi markazlar metodikasini takomillashtirishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o'rni.....313
***Abduqahhorova D.I.***
Ta'lim jarayonida o'qitish tizimida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati.....317
***Додаева Г.Э., Морхова И.В.***
Структурно-функциональная модель формирования ценностно-смысловой компетентности будущих учителей.....321
***Косимова Ш.Б.***
Влияние цифровых и традиционных средств обучения на снижение когнитивных барьеров у младших школьников при обучении английскому языку.....326

**GUMANITAR VA IJTIMOIY FANLAR TA'LIMI**

***Нурманов А.Т., Шагаева А.Ю.***
Методика интеграции ИИ-инструментов в уроки русского языка и литературы в Узбекистане: развитие критического мышления и повышение читательской грамотности.....329
***Гулямова З.Р.***
Когнитивно-прагматический анализ стилистических средств в юридическом дискурсе.....335
***Raxmonova D.M.***
Bolalar nutqiy faoliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar.....338
***Мамедова Л.О.***
Актуальные проблемы и перспективы развития двуязычия в современном обществе.....343
***Raimova K.B.***
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida psixolingvistik yondashuvlar asosida bilingvizm ko'nikmalarini rivojlantrish: nazariy tahlil va konseptual model.....345
***Ahmadova M.Sh.***
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda Alisher Navoiy asarlarining ta'sirini baholash.....347
***Xudayberdiyeva M.***
Milliy musiqa meros vositasida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarini rivojlantrishning pedagogik imkoniyatlri.....353
***Рашов О.С.***

**MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL**
**EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**
**NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN**
**NAMED AFTER NIZAMI**
**PEDAGOGICA**
(scientific-theoretical and methodical journal)
№ 2

**МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО**
**И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**
**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ**
**УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА им. НИЗАМИ**
**ПЕДАГОГИКА**
(научно-теоретический и методический журнал)
**№ 2**

**“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.**

**Mas’ul kotib –** R.M.Medetova
**Muharrirlar –** M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva
**Sahifalovchi –** S.Pirmatov
**Nashr ko‘rsatkichlari:**
Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077
Jurnal 2000-yildan boshlab chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.
2026-yil 26-mart bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.
Adadi – 80 nusxa. 30 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Bichimi 70x100$^{1}/_{16}$ “Roboto” garniturasi.
Nizomiy nomidagi O‘MPU “Tahrir va nash” bo‘limida bosildi.
100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.